BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

# БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

**Республика илмий-назарий анжуман материаллари**

**2020 йил 6 ноябрь**



o'tgan. Kolumbdan oldin Amerikani joylashgan joyni Buruniy bashorat qilgan yoki Ibn Sino, Xorazmiy , Termiziy, Forobiy bobolarimizni ustoz deb bilishadi Ibn Sinoning " Tib qonunlari " kitobi 5000 yillardan beri yevropada darslik sifatida ishlatiladi shunga munosib farzand bo'lishimiz kerak. Shu o'rinda M.Kantning go'zalik haqidagi mashhur to'rt tamoilidan uchtasi sharq faylasuflarining nazaryasi asosida qurilgan mazkur uch tamoil : go'zalikning beğaraz manfaatsiz munosabatlarga qurilishi; uning zaruratga aylangan muhabbatning obyektiga aylanganligi ( Ģazoliy); go'zalikni oddiy mantiqiy yondashuv orqali bilishimiz mumkin emasligi ( Forobiy).

O'zbek folklori fan sifatida ham o'qitiladi tanning maqsadi: talaba yoshlar o'rtasida qadriyatlaimizga hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Qadimgi davr folklor namunalari asl namunalari bizga qadar yetib kelmaganligi sababli hamda turli davrlarda turlicha o'zgarishga uchraganligi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi folklorlarining ba'zi namunalari ayrim tarixiy , ijrochilarda , yodnomalarda qisman saqlanib qolganligi Ayrim qadimgi mifologlarlarning saqlanib qolganligi:" Avesto" , "O'ğuznoma", "Kitobi dadam Qo'rqib", "Qutadğu bilig", " Hibat-ul-xaqoyiq", " Qissasi Rabğuziyda" folklor an'analari bizgacha yetib kelgan va bu asarlarni maktab darsliklarini o'qib o'rganganmiz.

Bu asarlar pandnoma ruhidagi asarlar hisoblanib ham ta'limiy ham tarbiyaviy tomonlari juda ham ko'p. Birgina Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni Hikmat "to'plamida 150dan oshiq hikmat berilgan. Yassaviy o'zini o'zgalardan ustun qo'ymaydi valiyman deb kibr-u havoga berilmaydi,aksincha, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'ladi. O'zini va o'zgalarni kamtarlik, vatanparvarlik, xokisorlikka chaqiradi .

Biz ham o'zimizga savol beraylik shu vaqtgacha nima qildik? nima qilolmadik? nimani qilishimiz kerak ? So'zimni Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlari bilan yakunlamoqchiman:

Yo'ldan chiqib ozganimni bilmadim men
Haq so'zni quloğimga olmadim men
Bu dunyoda ketarimni bilmadim men
So'rar bo'lsa men Qul anda ne qilgaymen.

## O`QUVCHILARGA ESTETIK TA`LIM-TARBIYA BERISHDA FOL`KLOR QO`SHIQLARINING O`RNI.

***Nurullayeva N.K. BuxDU magistranti***

Barkamol avlod tarbiyasida musiqa san`atining tutgan o`rni beqiyos,chunki musiqa o`z tabiatiga ko`ra inson hissiyotiga kuchli ta`sir etuvchi ,kishilarda nozik didni tarbiyalovchi ,ma`naviy barkamollikka undovchi kuchli vosita.Bundan tashqari musiqa inson hayotini voqelikka bo`lgan munosabatini va turli ichki kechinmalarimi hilma hil musiqiy tovush bo`yoqlari orqali badiiy obrazlar vositasida yorqin namoyon qiladi.U o`zining g`oyaviy badiiy mazmuni bilan yosh avlodni xalqimizning o`tmish va bugungi hayotini chuqur anglash,

miliy qadriyatlarimizni qadrlash va hurmat qilishga o`rgatadi.

Musiqa san`ati o`quvchi shaxsining ma`naviy axloqiy madaniyatini ,miliy g`urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshiradi.Ijodiy mahorat ,nafosat va badiiy didni o`stiradi,fikrlash darajasini kengaytiradi.Musiqa san`ati navqiron avlodning yuksak ma`naviyat ruhida kamol topishida kuchli ta`sir ko`rsatadi.Demak,musiqa madaniy hayotimizda keng o`rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o`ynaydigan san`at turidir.

Yosh avlodga ta`lim –tarbiya berish umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qitiladigan har bir o`quv fani hamda sinfdan tashqari olib boriladigan tadbirlar orqali amalga oshiriladi.Maktab o`quv fanlari o`quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.Estetik ta`lim- tarbiya tufayli o`quvchilarda bir qator ijobiy sifatlar shakllanadi.Jumladan, ularda kuchli hissiy mushohada ,mustaqil tafakkur yuritish qobiliyati ,mantiqiy fikrlash hususiyatlari tarkib topadi.

Oquvchilarga estetik ta`lim –tarbiya berishda ma`naviy merosimizning tarkibiy qismi bo`lgan fol`klor qo`shiqlari yetakchi o`rin egallaydi.

"Fol`klor" atamasi ingliz tilidan olingan bo`lib ,ikki so`zdan tashkil topgan."Fol`k"- xalq va "Lore" –donolik so`lari birikmasidan iborat bo`lib "xalq donishmandligi" degan ma`noni bildiradi.U birinchi marta Vil`yam Toms tomonidan 1846 yilda ishlatilgan.Fol`klor –xalq ijodiyotining barcha sohalari singari xalq musiqasini o`z ichiga oladi. Xalq milliy musiqasining eng ommalashgan turi –fol`klor qo`shiqlaridir. Fol`klor qo`shiqlari og`izdan og`izga ,avloddan avlodga o`tib to`ldiriladi va sayqal topadi.Fol`klor qo`shiqlarida voqea va hodisalar ,shaxsning botiniy kechinmalari o`z aksini topadi.va bu holat jamoaning his-tuyg`ulari bilan uyg`unlashgan holda ifodalanadi. Fol`klor qo`shiqlari –og`zaki an`anadagi musiqa turi hisoblanadi.Ibtidoiy san`atda paydo bo`lgan o`yin usullari ,jodu aytimlari,tovushli signallardan tortib xalq ashula va cholg`u kuylargacha kabi shakllardan iborat.Boshqa musiqa turlaridan ,asosan,turmush jarayoni (urf odat ,marosim,bayram va boshqalar) ga bevosita bog`langanligi bilan ajralib turadi.Aksariyat musiqiy fol`klor namunalari kundalik hayot (maishiy ,mehnat,marosim va boshqalar) vazifalarini bajaradigan badiiy shakllar sifatida qaror topadi.Ko`pgina xalq musiqasi namunalari sinkretik shakllar bo`lib,bularda kuy ohanglar so`z,qo`shiq ,terma,lapar ,raqs,tomosha bilan uyg`unlashgan holda yuzaga keladi. Muayyan badiiy an'ana va shakl ( ohang) andozalariga asoslangan xalq musiqa namunalari turli davr va sharoitda (tinglovchilar yoki ijrochilar tarkibi, ijro etish vaqti, joyi va muhitiga qarab) oʻzgaradi. Shuning uchun har bir musiqiy folklor namunasining bir necha varianti mavjud boʻladi. Xalq musiqasida mintaqaviy, milliy va mahalliy uslublar ajratiladi ( oʻzbek xalq musiqasida Buxoro—Samarkand musiqa uslubi, Surxondaryo—Qashqadaryo musiqa uslubi va boshqalar).

Musiqiy folklor namunalari badiiy mazmun jihatidan epik (terma, musiqiy ertak, maddohlik, qissaxonlik, afsona kuylari kabi), dramatik (musiqiy tomosha va boshqalar) va lirik (qoʻshiq, lapar, yalla, madhiya va boshqalar) turlarga, ijro

**SALIMOVA SH.I.** O'zbek musiqa folklori estetik tarbiya vositasi 213

**NURULLAYEVA N.K.** O`quvchilarga estetik ta`lim-tarbiya berishda fol`klor qo`shiqlarining o`rni. 215

**ОРТИҚОВ О.** Жадид маърифатпарварларининг санъат ва мусиқага оид қарашлари 219

**RAXIMOV A.R.,** Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish 223

**ГУЛБОЕВ. А.Т** Ўзбек миллий мусиқаси орқали шахсда миллий характерни, миллий ўзликни англаш тарбия манбаи. 226

**MUXAMEDOV T.** Folklor va uning o'ziga xos xususiyatlari 228

**MIRSHAYEV U.M.** O'zbek musiqa folklori va uning janrlar tarkibi 232

**MIRSHAYEVA D.A.** O'zbek musiqa folklori 234

**ҚУРБОНОВА Ў.У.** Миллий халқ маросим қўшиқлари - тарбия манбаи сифатида 237

**РАЖАБОВ Д.З.** Ўқувчиларга миллий қадриятлар воситасида эстетик тарбия бериш 241

**ЕРЕЖЕПОВ А.А.** Халқ достонларини ижро этилиши асосида ўқувчи-ёшларнинг маънавий-ахлоқий таълим-тарбиясини шакллантиришнинг шакл ва усуллари 245

**RAXMATOVA M., RAMAZONOVA O`.** Buxoroda bolalar folklor qo'shiqlarini ijro etishhihg o`ziga xos uslubi 248

**B. Q.SAYIDOV.** Mumtoz ashula ijrochiligida yo'l qo'yilayotgan vazn muammolari 250



| | |
|---|---|
| *Muharrir:* | *G`. Murodov* |
| *Texnik muharrir:* | *G. Samiyeva* |
| *Musahhih:* | *A. Qalandarov* |
| *Sahifalovchi:* | *M. Ortiqova* |

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 03.11.2020. Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 16,0. Adadi 100. Buyurtma №168.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi
"Durdona" nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45